

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI SAQLASH VA TASHISHDAGI LOGISTIKA MUAMMOLARI

Sattarova Gulnoza Xabibullayevna

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes”

kafedrasi o'qituvchisi

Soliyeva Durdona Akmaljon qizi

Namangan Davlat Universiteti, Iqtisodiyot

fakulteti LGS-AU-22 gruh talabasi

+998942226342 donaakmaljonovna@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy logistika muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayniqsa meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishdan tortib iste'molchigacha yetkazib berish jarayonida yuzaga keladigan yo'qotishlar, sovutish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda transport-logistika tizimidagi kamchiliklar yoritib beriladi. Shuningdek, mavjud muammolarning iqtisodiy oqibatlari ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: agrologistika, qishloq xo'jaligi, saqlash, tashish, sovutish zanjiri, logistika muammolari.

Annotation

This article analyzes the main logistical problems related to the storage and transportation of agricultural products in Uzbekistan. Special attention is given to post-harvest losses of fruits and vegetables, insufficient cold storage infrastructure, and shortcomings in the transport and logistics system. The economic consequences of these problems are examined, and practical recommendations aimed at improving the efficiency of agrologistics are proposed.

Keywords: agrologistics, agriculture, storage, transportation, cold chain, logistics problems.

Kirish

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yetishtirilayotgan meva-sabzavot, poliz va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirishda, balki eksport salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning qulay iqlim sharoiti, unumdor yer resurslari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha tarixiy tajribasi mazkur sohaning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar

yaratadi. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortib borishi bilan bir qatorda, ularni samarali saqlash va tashish masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki mahsulot yetishtirish jarayonining o'zi yakuniy iqtisodiy natijani to'liq belgilab bermaydi. Mahsulotni daladan iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarda to'g'ri boshqarish, ayniqsa tez buziladigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun muhim ahamiyatga ega. Saqlash va tashish jarayonlarida yuzaga keladigan kamchiliklar esa yetishtirilgan mahsulotlarning katta qismining yo'qotilishiga olib kelmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashish tizimida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, zamonaviy sovutkich omborlarining yetishmasligi, sovutish zanjiri (cold chain) tizimining to'liq shakllanmaganligi, maxsus transport vositalarining kamligi hamda logistika infratuzilmasining ayrim hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu muammolar qatoriga kiradi. Natijada mahsulotlar sifati pasayib, bozor qiymati tushib ketadi yoki umuman realizatsiya qilinmasdan yo'qotiladi. Mazkur muammolar qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, xususan fermer xo'jaliklari uchun moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, saqlash va tashishdagi kamchiliklar ichki bozorda narxlarning beqarorlashuviga, eksport hajmining kamayishiga hamda mamlakatning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli agrologistika tizimini rivojlantirish, saqlash va tashish jarayonlarini samarali tashkil etish bugungi kunda muhim iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada O'zbekistonda, xususan Namangan viloyati misolida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashishdagi asosiy logistika muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mavjud muammolarning sabablari va oqibatlari yoritilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Asosiy qism

Mahsulotlarni tashish jarayoni agrologistika tizimining muhim bo'g'inlaridan biridir. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashishda asosan avtomobil transporti xizmatidan foydalaniladi. Biroq maxsus sovutiladigan transport vositalarining yetishmasligi mahsulot sifati saqlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'plab holatlarda mahsulotlar oddiy yuk mashinalarida tashiladi, bu esa ayniqsa yoz oylarida mahsulotlarning tez buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, ayrim qishloq hududlarida yo'l infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi tashish jarayonini murakkablashtiradi va yetkazib berish muddatlarini uzaytiradi. Sovutish zanjiri (Cold Chain Logistics) yetishmasligining oqibatlari: Sovutish zanjiri-bu mahsulotni yetishtirishdan boshlab iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarda ma'lum harorat rejimini saqlab turishni ta'minlovchi logistika tizimidir. O'zbekistonda sovutish zanjiri to'liq shakllanmaganligi sababli tez buziladigan mahsulotlarda sifat

yo'qotilishi tez-tez kuzatiladi. Cold chain tizimining yetishmasligi eksport jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro bozorlar yuqori sifat talablarini qo'yganligi sababli, sovetish sharoitlari to'liq ta'minlanmagan mahsulotlar raqobatbardosh bo'la olmaydi.

Saqlash va tashishdagi logistika muammolarining iqtisodiy oqibatlari: Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashishdagi muammolar iqtisodiyotga bir qator salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Avvalo, mahsulotlarning yo'qotilishi ichki bozorda taklifning qisqarishiga va narxlarning oshishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, fermer va ishlab chiqaruvchilarning daromadlari kamayadi. Eksport salohiyatining pasayishi esa mamlakatning valyuta tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois agrologistika tizimini takomillashtirish nafaqat alohida xo'jalik subyektlari, balki butun iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar: Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashishdagi logistika muammolarini bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- zamonaviy sovetkich omborlari va logistika markazlari sonini oshirish;
- agrohud va klaster tizimlarini rivojlantirish;
- sovetiladigan transport vositalarini ko'paytirish va yangilash;
- xususiy sektor va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- logistika jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- agrologistika bo'yicha oliy malumotli va malakali kadrlarni jalb qilish.

Agrologistika muammolarini samarali hal etish nafaqat infratuzilma, balki malakali kadrlar bilan bog'liq. Oliy ma'lumotli mutaxassislar va logistika sohasida tajribaga ega xodimlarni tayyorlash va jalb etish orqali sovetkich omborlari, transport va raqamli tizimlardan samarali foydalanish mumkin. Shu maqsadda oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini kengaytirish, mavjud mutaxassislar malakasini oshirish va yosh kadrlarni hududlarga jalb qilish zarur. Bu chora-tadbirlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashish jarayonlarini yanada samarali qiladi.

Namangan viloyati misolida agrologistika holatining tahlili:

Namangan viloyati O'zbekistonning qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda asosan meva-sabzavot, uzumchilik va poliz mahsulotlari yetishtiriladi. So'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi oshib borayotgan bo'lsa-da, saqlash va tashish jarayonida muayyan muammolar saqlanib qolmoqda.

Namangan viloyatida mavjud sovetkich omborlari soni yetishtirilayotgan mahsulot hajmiga nisbatan yetarli emas. Natijada mavsum paytida mahsulotning bir qismi tezda realizatsiya qilinadi yoki past narxlarda sotishga majbur bo'linadi. Bu holat fermerlar daromadining kamayishiga olib keladi. Transport-logistika masalasida ham muammolar mavjud. Ayrim tumanlarda logistika markazlarining yo'qligi

mahsulotlarni uzoq masofalarga tashishni qiyinlashtiradi. Sovutiladigan transport vositalarining cheklanganligi esa sifat yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda.

1-jadval**Namangan viloyatida saqlash va tashish jarayonidagi yo'qotishlar tahlili**

Ko'rsatkichlar	Baholangan miqdor
Yillik meva-sabzavot ishlab chiqarish hajmi	1,5 mln tonna
Saqlashdagi o'rtacha yo'qotishlar	20–25 %
Tashish jarayonidagi yo'qotishlar	8–10 %
Sovutkich omborlari bilan qamrov	40–45 %
Sovutiladigan transport ulushi	30 % atrofida

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, saqlash va tashish jarayonlaridagi yo'qotishlarning asosiy sabablari sifatida saqlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xususan, sovutkich omborlarining yetishmasligi natijasida mahsulotlarning buzilishi va isrof bo'lishi kuzatiladi. Shu bilan birga, zamonaviy omborlar sonining kamligi va mavjudlarining texnik jihatdan eskirganligi ham yo'qotishlar darajasini oshirmoqda. Tashish bosqichida esa sovutiladigan transport vositalarining yetishmasligi mahsulot sifatining pasayishiga olib kelmoqda, bu esa transport parkini yangilash zaruratini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, yo'l infratuzilmasining ayrim hududlarda sifatsizligi yetkazib berish jarayonlarining kechikishiga sabab bo'lib, mahsulotlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shu bois hududiy yo'llarni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir muhim omil sifatida "cold chain" — sovutish zanjirining to'liq shakllanmaganligi qayd etilib, bu holat eksport imkoniyatlarining kamayishiga olib kelmoqda, demak sovutish zanjirini kompleks rivojlantirish talab etiladi. Shuningdek, logistika boshqaruvida raqamlashtirish darajasining pastligi umumiy samaradorlikni pasaytirayotgan bo'lib, zamonaviy raqamli logistika tizimlarini joriy etish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin.

2-jadval**Saqlash va tashishdagi asosiy muammolar**

Muammo turi	Muammoning mazmuni	Oqibatlari	Taklif etilayotgan yechimlar
Saqlash infratuzilmasi	Sovutkich omborlar yetishmasligi	Mahsulot buzilishi, isrof	Zamonaviy omborlar qurish
Transport vositalari	Sovutiladigan mashinalar kam	Sifat pasayishi	Transport parkini yangilash

Yo'l infratuzilmasi	Ayrim hududlarda yo'llar sifatsiz	Yetkazib berish kechikadi	Hududiy yo'llarni yaxshilash
Cold Chain tizimi	Sovutish zanjiri to'liq emas	Eksport imkoniyati kamayadi	Sovutish zanjirini rivojlantirish
Logistika boshqaruvi	Raqamlashtirish past darajada	Samaradorlik pasayadi	Raqamli logistika tizimlari

Muammolarni bartaraf etish bo'yicha kengaytirilgan takliflar. Agrologistika tizimini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- hududlar kesimida agrohuv va logistika markazlarini tashkil etish;
- Namangan viloyatida meva-sabzavotga ixtisoslashgan sovutkich omborlarini ko'paytirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida logistika loyihalarini amalga oshirish;
- fermerlar uchun logistika bo'yicha trening va maslahatlar tashkil etish;
- transport-logistika jarayonlarini raqamlashtirish.

Yuqorida keltirilgan takliflar asosida iqtisodiy jihatdan fermer xo'jaliklari daromadining kamayishi, ichki bozorda narxlar barqarorligining buzilishi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport salohiyatining to'liq amalga oshirilmaslik holatlarining oldi olinadi. Shu bois agrologistika tizimini rivojlantirish qishloq xo'jaligi sohasining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib aytish mumkinki, zamonaviy sovutkich omborlarini ko'paytirish, agrohuv va logistika markazlarini hududlar kesimida rivojlantirish, sovutiladigan transport vositalari ulushini oshirish hamda logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali mahsulot yo'qotishlarini kamida 10–15 foizga qisqartirish imkoniyati mavjud. Bu esa nafaqat fermerlar va ishlab chiqaruvchilar manfaatiga, balki mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashishdagi logistika muammolarini kompleks va tizimli ravishda hal etish O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekistonda, xususan Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashish jarayonida mavjud bo'lgan logistika muammolari hanuzgacha dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishiga qaramasdan, ularni samarali saqlash va iste'molchigacha sifatli yetkazib berishni ta'minlaydigan logistika infratuzilmasi ishlab chiqarish sur'atlariga mos ravishda rivojlanmagan.

O'rganishlar natijasida aniqlanishicha, saqlash va tashish jarayonlaridagi yo'qotishlar ayrim mahsulot turlarida o'rtacha 20–30 foizni tashkil etmoqda. Ayniqsa, sovutkich omborlari bilan ta'minlanganlik darajasining pastligi, sovutish zanjiri (cold chain logistics) tizimining to'liq joriy etilmaganligi hamda sovutiladigan transport vositalari ulushining cheklanganligi tez buziladigan meva-sabzavot mahsulotlarida sifat yo'qotilishiga olib kelmoqda. Natijada mahsulotlarning bozor qiymati pasayib, ularning bir qismi eksport talablariga javob bermay qolmoqda. Namangan viloyati misolida olib borilgan hududiy tahlil shuni ko'rsatdiki, viloyatda yillik meva-sabzavot ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lishiga qaramasdan, sovutkich omborlari bilan qamrov darajasi taxminan 40–45 foiz atrofida bo'lib qolmoqda. Bu esa mavsumiy hosil davrida mahsulotlarning tezkor realizatsiya qilinishi yoki past narxlarda sotilishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, sovutiladigan transport vositalarining umumiy tashish hajmidagi ulushi o'rtacha 30 foizdan oshmasligi tashish jarayonidagi yo'qotishlarni yanada kuchaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligini rivojlantirishga doir farmon va qarorlari. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. Rasmiy statistik va tahliliy ma'lumotlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo'jaligi va agrologistika ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar. – Toshkent.
4. FAO (Food and Agriculture Organization). *Agricultural Logistics and Cold Chain Development*. – Rome.
5. FAO. *Reducing Post-Harvest Losses in Fruit and Vegetable Supply Chains*. – Rome.
6. Christopher, M. *Logistics and Supply Chain Management*. – Pearson Education.
7. Ballou, R. H. *Business Logistics Management: Planning, Organizing, and Controlling the Supply Chain*. – Prentice Hall.
8. Lambert, D. M., Stock, J. R., Ellram, L. M. *Fundamentals of Logistics Management*. – McGraw-Hill.
9. Mentzer, J. T. *Supply Chain Management*. – Sage Publications.
10. World Bank. *Agricultural Supply Chains and Logistics Performance*. – Washington, DC.
11. OECD. *Improving Agricultural Logistics and Market Access*. – Paris.